

3-27-2019

WORDS ABOUT WORDS

Tulkin Asadov Hamroyevich

Dosent at the department of Uzbek linguistics at Bukhara State University, doctor of philology

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/buxdu>

Recommended Citation

Hamroyevich, Tulkin Asadov (2019) "WORDS ABOUT WORDS," *Scientific reports of Bukhara State University*: Vol. 2 : Iss. 1 , Article 1.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/buxdu/vol2/iss1/1>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific reports of Bukhara State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact brownman91@mail.ru.

UDK: 811.512

SO‘Z HAQIDA SO‘Z
СЛОВА О СЛОВАХ
WORDS ABOUT WORDS

Asadov Tulkin Hamroyevich*Dosent at the department of Uzbek linguistics at Bukhara State University, doctor of philology*

Tayanch so‘zlar: so‘zning ma‘no ifodasi, o‘z va o‘zlashma so‘z, so‘z tarkibi, etimologik tahlil, ijobiy ma‘no, salbiy ma‘no, sheva so‘z, ko‘chma ma‘no.

Ключевые слова: смысловое значение слова, исконные и заимствованные слова, слова структуры, этимологический анализ, положительное значение, отрицательное значение, диалектизмы, переносное значение.

Key words: semantic meaning of a word, native and derived words, structure of the word, etymological analysis, positive meaning, negative meaning, dialect word, figurative meaning.

Аннотация

Maqolada so‘z va uning semantik tabiati, ayrim so‘zlarning ma‘no imkoniyati, qisman etimologik tahlili, qo‘llanish doirasi tadqiq etilib, misollar yordamida isbotlab berildi.

Аннотация

В статье объектом исследования являются слова и их семантическая природа, смысловые возможности некоторых слов, этимологический анализ, круг использования.

Abstract

The article deals with word and its semantic nature, the meaning capacities of some words, their etymological analysis and the sphere of their usage.

Kirish. Lug‘at qatlamimizdagi so‘zlarimiz ma‘no ifodalarga boy [1]. Xususan, asl o‘zbekcha (turkiy) so‘zlarda ma‘no serqirralik, jilodorlik ustuvorlik qiladi. Bu esa mazkur so‘zlarning yillar davomida ma‘no imkoniyatlarini kengaytirib kelishi bilan belgilanadi [2].

Ma‘no imkoniyatining turlichaligi, serjiloligi bilan fe‘l va otlar yetakchilik qiladi. Nutqimizda keng qo‘llanuvchi *kel, tur, tush, yur, qol, bor* kabi asl turkiy – o‘zbekcha so‘zlarning o‘nlab ma‘nolarda kela olishi lug‘atlarda sharhlangan. Masalan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *tushmoq* so‘zining 30 ga yaqin ma‘nosi izohlanganligiga guvoh bo‘lamiz [3, 217-220]. So‘zning bu qadar keng ma‘no ifoda, imkoniyatlarga egaligi kamdan kam tillarda kuzatiladi.

O‘zlashma so‘zlarda ma‘no ifodaning bu darajada taraqqiy etmaganligi ularning lug‘at qatlamimizda nisbatan yosh, kenja avlod so‘zlar bo‘lganligi bilan belgilanadi. Ular turkiy so‘zlar kabi o‘nlab ma‘nolar kasb etishi uchun “yillar dovoni”dan o‘tishi, shuningdek, keng iste‘moldagi so‘zga aylanib ulgurishi kerak. Vaholanki, o‘zlashmalarning tilimizdagi iste‘moli, paydo bo‘lishi asl turkiy so‘zlar singari qadimiy emas.

Asosiy qism. Lug‘atimizdagi so‘zlar haqida, uning o‘ziga xos ma‘no tomonlari, tarkibiy tabiati borasida zukko tilshunoslar, ustozlarimiz ko‘p fikrlar aytishgan. Zero, so‘zlarimiz, uning serma‘noligi bo‘yicha jiddiy maqolalar, tom-tom kitoblar yozsa arziydi. Biz ham bu borada e‘tibordan chetda qolgan ayrim fikrlarimizni bayon qilmoqchimiz.

Astoydil

Astoydil soʻzi, asosan, badiiy nutqda qoʻllanadi. Jonli soʻzlashuvda bu soʻz oʻrnida koʻpincha *yurakdan* soʻzi qoʻllanadi: *astoydil mehnat qilmoq – yurakdan mehnat qilmoq* kabi. Shuningdek, astoydil soʻzining maʼno ifodasiga yaqin boʻlgan *sidqi, jiddiy, rostakam(iga), chinakam(iga)* kabilar ham keng ishlatiladi. *Astoydil* soʻzi diqqat, eʼtibor bilan qilingan yoki qilinishi lozim boʻlgan yumushga koʻra qoʻllanadi. Bu soʻzning talaffuzda *astoydil* shaklida, yaʼni bir unli qoʻshib aytish keng uchraydi. Mazkur holat oʻzbek tilining talaffuz tabiatida yonma-yon kelgan ikki undosh orasida bir unli tovush qoʻshib aytish qonuniyati bilan bogʻliq. Afsuski, bu soʻz shu qoidaga boʻysundirilmay, yaʼni imlosiga koʻra shu shaklda – *astoydil* deb yozish lugʻatlarda qatʼiy holat qilib belgilab qoʻyilgan.

Astoydil soʻzi fors-tojik tilidan olingan boʻlib, “az tahti (tahi) dil” oʻzbekchada “yurakning chuqur joyidan”, koʻchma maʼnoda esa qalb qoʻridan, degan maʼnoni ifodalaydi. Fors tilidan lugʻatimizga oʻzlashgach, birikmali xususiyati yoʻqolib, sodda shakl (qoʻshma soʻzning soddala-nishga uchrash holati)ga kelib qolgan. Bu soʻzning nutq jarayonida “chin koʻngildan, sidqidillik bilan, jiddiy ravishda; rostakamiga; halollik bilan, vijdonan” kabi turli maʼnolarda kelishi lugʻatlarda bayon etiladi.

Uzzukun

Uzzukun soʻzi sof turkiy(oʻzbekcha) soʻz boʻlib, “kun boʻyi, kuni bilan” kabi maʼno ifodaga ega. Bu soʻz etimologiyasiga koʻra “uzun kun” birikmasi bilan aloqador. Uzun kun birikmasi qulaylik, tejamkorlik tamoyili asosida soddalashib, *uzzukun* koʻrinishiga kelib qolgan. Ushbu soʻzning qoʻsh undoshli holatga uchrashi esa uslubiy talab bilan bogʻliq. Maʼno kuchaytirish ehtiyoji tufayli yana bir “z” tovushi ortib, shu shaklda qoʻllanishi meʼyorlashgan.

Uzzukun soʻzi tongdan kechgacha boʻlgan vaqtni bildirishga ixtisoslashgan. Lugʻatimizda *boʻyi, bilan* koʻmakchilarning faollashishi natijasida *uzzukun* soʻzi oʻrnida *kuni bilan, kun boʻyi* koʻmakchili birikmalar ishlatila boshlangan. Bunga koʻra har tomonlama qulay boʻlgan *uzzukun* soʻzining nutqiy muloqotdagi koʻlami pasayib borgan.

Tasqara

Har bir oʻzbek tasavvurida bu soʻz salbiy maʼno va tushuncha anglatishi tayin. *Tasqara* soʻzi kelib chiqishiga koʻra arabcha soʻz boʻlib, qushning bir turi nomi hisoblanadi. Bu soʻz asli “tashqi koʻrinishi yoqimsiz” holatga koʻra qoʻllanganmi yoki dastlab qush nomi boʻlib, bora-bora xunuk kishilarga nisbatan qoʻllanila borganmi, bu biz uchun qorongʻu. Mazkur holatni aniqlash, sharhlash arab tili soʻzlarining oʻz tilidagi etimologik tahlili bilan bogʻliq. Bizningcha, salbiy sema ifodalovchi ushbu soʻzning paydo boʻlishi shu qushning tashqi koʻrinishi bilan bogʻliq. Qarchigʻaysimonlar oilasiga taalluqli bu yirtqich qushning tashqi koʻrinishi va oʻlaksaxoʻrligi sabab nutqda xunuk soʻzining maʼnodoshi sifatida *tasqara* soʻzi paydo boʻlgan.

Muhimi shundaki, hozirgi oʻzbek adabiy tilida asli qush turi nomi boʻlgan *tasqara* soʻzining ikkinchi, yaʼni koʻchma (xunuk) maʼnosining ishlatilishi faollashgan.

Oʻzbek xalqi mazkur soʻzni eshitishi bilanoq, koʻz oʻngida “yoqimsiz koʻrinishli” kishi, koʻpincha ayol kishi gavdalanadi. Toʻgʻri, ayollarning xunigi boʻlmaydi, biroq kezi kelganda, yuragidagi nafrat, alamni yuzaga chiqarishda, asosan, ayollar nutqida mazkur soʻzning, odatda, qiz va juvonlarga nisbatan qoʻllanganligiga guvoh boʻlamiz.

Tasqara soʻzining narsalik (dastlabki) belgisi unut boʻlib, sifatiy belgi (xunuklik belgisi) birlamchi mavqega koʻtarilgan. Bu tushunchada oʻzgarish yuz berganligi bilan bogʻliq.

Nutqimizda *tasqara* soʻzi bilan birga, shu umumiy maʼno atrofida *xunuk, badbashara, badqavoq, badsurat, besoʻnaqay* kabi soʻzlar ham ishlatiladi. Bu qatordan *tasqara, taʼviya* soʻzlarining salbiy maʼno darajasi kuchliroq.

Oʻzbek xalqi qadimdan ezgulikni tabiatiga aylantirgan, andishali, nutq etikasiga rioya etuvchi xalq boʻlganini soʻzlashdan tolmaymiz. Bunday xulosaga kelishimizga dalillar bisyor. Bu borada soatlab gapirish, alohida asarlar yozish mumkin. Aytmoqchimizki, xalqimiz salbiy

SOCIAL AND BEHAVIORAL SCIENCES: LINGUISTICS

ma'noli so'zlarni birovga qo'llashdan andisha qilgan. Buning birgina dalilini sinonimlar lug'atidagi *xunuk*, *badbashara*, *badburush*, *tasqara*, *ta'viya*, *badsurat*, *beo'xshov* kabi ma'nodoshlik qatoridagi so'z-larning o'zbekcha emas, balki asosan forsiy, arabiy ekanligi bilan bog'lash mumkin. Ajdodlarimiz ko'rinishi yoqimsiz kishiga nisbatan *sovuq* so'zini (buni ham ko'chma ma'nosi bilan) qo'llash bilangina cheklangan. Xalq birovni kamsitish, xo'rlash, behurmat qilishda andisha qilgan. Aksincha, *chiroyli*, *ko'rkam*, *suluv*, *husnli*, *latofatli* kabi (o'zbekcha so'z)larni ko'proq ishlatishga ishtiyoqmand bo'lishgani rost.

Yelvagay

Xalq tilida biror-bir narsa-hodisani, inson kechinmalarini o'zida aks ettira ololmaydigan so'zning o'zi yo'q. Har bir ko'rinish, voqea-hodisa, tushuncha muayyan bir so'z shakliga ega bo'l-gan. Shundaylardan biri "yelvagan yurish" birikmasidir. *Yelvagay* so'zi nisbatan kam qo'llanuvchi so'z bo'lib, "yengli kiyimlar yoki ro'mol (ayollar uchun) va shu kabilarni rostmana kiymay, o'ramay, kiftga tashlagan ko'rinishda yurish holati"ga ko'ra qo'llanadi. Bu so'z tarixan yel (shamol) so'zi bilan bog'liq. Sobiq ittifoq davrida erkaklarimizning azaliy odatlaridan biri, ya'ni do'ppilar kiyib, to'nlarini yelkalariga malolsiz tashlab yurishlari kamayganligi ayni haqiqat. Bunday yurish erkin, xotirjam hayot tarzi ko'rinishidir. Shu sabab yelvagay so'zining ishlatilish doirasi ham jamiyat bilan bogliq holatda keskin qisqardi.

Mazkur so'z har jihatdan kishining tashqi holatini aniq tasavvur etishimizga ko'mak beradi. Ushbu so'z qo'llanishini osoyishtalik va xotirjamlik hukm surayotgan ayni damlarda faollashtirish ahamiyat kasb etadi.

Xancha

Sheva so'zlar shunisi bilan ahamiyatliki, qadimiy yodnomalar, yozma manbalarda saqlanmay qolgan til birliklari sheva orqali yetib keladi. Sheva bitmas-tuganmas xazina bo'lib, adabiy tilimizdan o'rin olmagan so'zlar sheva orqali saqlangan. Shunday so'zlardan biri, izohli lug'atlarda o'z aksiga ega bo'lmagan, ayrim hududlardagina saqlangan *xancha* so'zidir. Bu so'z "nihol, ko'chat o'tqazishga mo'ljallab kovlangan chuqurcha" ma'no ifodasiga ega bo'lib, har qanday kovlangan yer holatiga ko'ra emas, balki aynan nihol, ko'chatga moslangan chuqurlik ma'nosini ifodalaydi. *Xancha* so'zi *xandaq* (so'zlashuv tilida - xandak) so'zi bilan asosdosh. *Xandaq* so'zi esa har qanday chuqurga, o'raga nisbatan qo'llanaveradi.

Ma'lumki, har bir o'zbek nihol o'tqazish ishiga xayrixoh. Bu uchun kuz va bahorda yerni tayyorlash lozim – chuqur kovlab chiqish kerak. Mana shu chuqurcha uzoq va yaqin o'tmishda *xancha* so'zi bilan atalgan.

XX asrda o'zbek tilining leksik-grammatik me'yorlari ishlab chiqilgan bir davrda sanoqsiz so'zlar qatori *xancha* so'zi ham adabiy til qatlamiga o'tmay qoldi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da mazkur so'zning mavjud emasligi *xancha* so'zining sheva sirasida qolib ketganligidan dalolat beradi. Bizningcha, izohli lug'atlarning keyingi avlodlarida *xancha* so'zini kiritish va izohlash lozimki, bu juz'iy kemptiklikni to'ldirishga xizmat qila oladi.

Kasalxona

Lug'atimizda *kasalxona* va uning muqobili sifatida qo'llanuvchi *shifoxona* so'zlariga tez-tez duch kelamiz. Izohli lug'atlarda *kasalxona* so'ziga nisbatan "kasallarni muntazam kuzatish va davolash uchun joylashtiriladigan muassasa, shifoxona" tarzidagi izoh beriladi. *Shifoxona* so'ziga esa "davolash muassasasi, kasalxona" qabilidagi izoh bayon etilgan.

Yurtimizdagi davolash maskanlarining aksariyatiga nisbatan *kasalxona* atamasi qo'llangan-ligiga guvoh bo'lamiz. *Kasalxona* so'zi lug'at qatlamimizga ko'pgina so'zlar qatori rus tili ta'sirida paydo bo'lgan. Rus tili lug'at qatlamiga mansub "bolnitsa" so'zining tarjimai *kasalxona* so'ziga mos kelganligi sababli mazkur so'z qo'llanila boshlangan. Biroq kishilarni davolovchi, dardidan forig' etuvchi maskanlarga nisbatan "kasalxona"ni emas, balki *shifoxona* atamasini qo'llash har jihatdan ma'qul. Bunga quyidagicha asoslar mavjud.

Birinchiidan, *kasalxona* va *shifoxona* so'zlarining asosi arabcha bo'lib, kasal so'zi arab tili lug'at qatlamidagi izohiga ko'ra "dangasalik, dangasa, ishyoqmas" tarzida salbiy ma'no ifodaga ega bo'lsa, shifo so'zi "davolanish, sog'ayish, kasallikdan xalos bo'lish, tuzalish" kabi

SOCIAL AND BEHAVIORAL SCIENCES: LINGUISTICS

ijobiy ma' -nolarga ega. *Kasal* so'zining hozirgi o'zbek tilidagi izohi quyidagicha: *organizm me'yoriy holati, faoliyati buzilgan, kasallikka yo'liqqan, betob* kabi. Bu izohga hech qanday e'tiroz yo'q, albatta. Davolanish maskanlarini nomlashda shu izoh asos qilinib olingan. Biroq *shifo* so'zi bir vaqtning o'zida "kasallikdan forig' bo'lish hamda tuzalish" ma'no ifodalariga ega. Bu esa *kasalxonona* so'ziga nisbatan *shifoxona* so'zining holat, mohiyat, voqelikni teranroq anglata olishini ko'rsatib turibdi.

Ikkinchidan, dardmand insonga shifo, davo, parvarish lozim. Betob, dardmand kishi kasal-xonaga emas, shifoxonaga ehtiyojmand, har qanday kasal odam shifo istaydi. Aytmoqchimizki, kasalxonona va shifoxona atamalarining ma'nosida estetik farqlanish mavjud. Masalan, "*Kechagina kasalxonadan tuzalib chiqdim*" jumlasida o'rnida "*Kechagina shifoxonadan tuzalib chiqdim*" tarzida-gi qo'llanish har jihatdan o'rinli, jo'yali, qolaversa, bu jumlada nutq mantiqiyligi ta'minlangan.

Ko'rinadiki, *shifoxona* so'zining qo'llanilish doirasini kengaytirish, kasalxonona so'zidan ko'ra birlamchi mavqega ko'tarish lozim. Bemorni sog'aytiradigan, unga shifo ulashadigan maskanga nisbatan garchi nutqimizda qo'llanmasa-da, *davoxona, parvarishxonona, darmonxonona* kabi so'zlarni ham qo'llash mumkindir. Aytmoqchimizki, mazkur so'zlarning har biri *kasalxonona* so'zidan ham shaklan, ham mazmunan yuqori turadi. Biroq bu kabi yangi nutqiy yasama so'zlarga ehtiyoj yo'q, chunki nutqimizda mavjud *shifoxona* so'zi keng qamrovli va qulay, eng asosiysi, barchaga birdek tanish, mohiyatni aniq ifoda eta oladi.

Magar

Magar so'zi fors tilidan o'zlashgan bo'lib, o'z tilidagi izohiga ko'ra "ammo, lekin, shekilli" kabi ma'nolarni anglatish uchun qo'llangan. Biroq o'zbek tilida bu so'z o'zgacharoq ifodalarga ega. Buni mazkur so'z qo'llangan badiiy parchalar ham isbotlaydi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *magar* so'zi hozirgi o'zbek adabiy tilidagi izohiga ko'ra uch ma'no ostida sharhlanadi:

Ushbu so'zning birinchi ma'nosi – "so'roq, taajjub, tasdiq" ekanligi aytiladi. *Magar istiqloq shu ekan, kelin, biz ham kiraylik, qizning dilini, tilak-istaklarini bilaylik* (M. Ismoiliy). Bu misolda "so'roq, taajjub" emas, balki tasdiq ma'nosi yetakchilik qiladi. Lug'atda ikkinchi ma'nosi bilan "faqat, yolg'iz", uchinchi ma'nosi bilan "agar" so'ziga teng kelishi aytiladi. O'zbek lug'at qatlamida, asosan, badiiy uslubda *magar* so'zi ko'pincha "agar"ning muqobili, o'rindoshi sifatida qo'llanganligiga guvoh bo'lamiz. Taniqli shoir A. Oripov yozadi:

Magar kelganda ham qiyomat, qoyim,
Yor bo'lsin yigitga niyati doim.

Bu misrada "magar" agar so'zi ma'no ifodasiga ega.

A.Oripovning "Istak" she'rida *magar* so'zining boshqa bir qirrasini yuzaga chiqqan:

Orzum shul, o'chmasin yongan chirog'ing,
Yulduzday nur sochsin chashming – qarog'ing.
Magar chinor bo'lsang chinorday yasha,
Bevaqt uzilmasin biror yaprog'ing.

Bunda *magar* so'zi oldingi parchadan farqli o'laroq tasdiq, kuchaytirish ma'no ifodalariga ega. Shoir "Agar chinor bo'lsang chinorday yasha" qabilidagi qo'llanishni yaratmaganligiga sabab shuki, *agar* so'zida ikkilanish, shubhalanish ma'nosi bor. *Magar* so'zida esa ikkilanish emas, qat'iylik, ishonch, tasdiq ma'no ifoda ustuvorligi mavjud.

Ma'lumki, chinor ko'p yillik hamda mustahkam daraxt hisoblanadi. Shu mantiqiy asosi bilan badiiy adabiyotda daraxt so'zi ko'chma ma'noda keng qo'llanadi. Yuqoridagi parcha bilan ijodkor hech ikkilanmay "Sen chinorsan" tarzidagi nozik ma'no ifodani voqelantira olganligiga guvoh bo'lamiz. *Magar* so'zining *agar* so'ziga nisbatan tasdiq va kuchaytirish ma'no ifodasiga ega ekanligini xalqimizning suyukli shoiri G'. G'ulom ijodida ham kuzatamiz:

"Agar"ni "*magar*"ga kuyov qilsalar,
Tug'ulgay bir o'gil, oti "koshki".

Hazilomuz tarzda yozilgan ushbu misra aslida chuqur ma'no ifodaga ega. Kuzatadigan bo'lsak, ko'chma ma'noda qo'llangan "agar", "magar", "koshki" so'zlarida ma'no ifoda darajasi-ning oshib borishi seziladi. "Agar"ga nisbatan "magar", "magar"ga nisbatan "koshki"

SOCIAL AND BEHAVIORAL SCIENCES: LINGUISTICS

so'zi ma'no ta'kidiga ko'ra yuqori turadi. She'riy parchada *agar, magar, koshki* so'zlari pog'onaviy darajala-nuvchi lug'aviy ma'no guruhini hosil qilgan.

She'riy parchada yordamchi so'zlarning vazifa semasida emas, ko'chma ma'noda qo'llan-ganligi ijodkorning muayyan bir maqsadi bilan bog'liq. Faylasuf shoir G'. G'ulom ushbu misralar orqali inson ruhiyati, u bilan bog'liq holatni yoritib bergan. Parchaning ma'nosi borasida aytish mumkinki, odamzod tabiatiga ko'ra orzumand mavjudot. Orzu, havas, istak qilish kishi tabiatiga xos xususiyatlardir. Uning istak, orzu va havaslari hamisha oshib boradi. Bu rad etib bo'lmaydi-gan haqiqatdir. Kishi intilishdan, yangi-yangi marralarni zabt etishdan chekinmaydi. Maqsad uchun ildamlab, yangi bir cho'qqiga erishgach, undan yuqoriroq o'zga bir niyat, xohish, maqsad-ga ishtiyoq tug'iladi. Nekbin shoir G'.G'ulom mana shu qisqa satrlar bilan yuqoridagi kabi ma'nolarni bera olgan. Siquq misra bilan ummondek ma'no ifodani yuzaga chiqarishga erishgan.

Xulosa. Tilimizdagi har bir so'z semantik tadqiqi mubolag'asiz muayyan bir fundamental tadqiqot asosi bo'la olish qudratiga ega. Buni o'rganish, tadqiq va tasnif etish bilan nafaqat tilimiz tabiatiga, balki tariximiz, o'zligimiz, qadriyatlarimizga ham e'tibor bergan bo'lamiz.

REFERENCES

1. **Mirtojiev M.** O'zbek tili semasiologiyasi. - T.: Mumtoz so'z, 2010. - 284 b.
2. **Nusratullo Atoulo o'g'li Jumaxo'ja.** Istiqolol va ona tilimiz. - T.: Sharq, 1998. - 158 b.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-jild. A.Madvaliev tahriri ostida. - T.: O'zME, 2008. - 606 b.